

Eman daraxtining morfologik xuxusiyatlari

Jumayeva Dilnoza Abdusattor qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Biologiya(turlari buyicha) 3bosqich

[jumayevad34@gmail.com](mailto:jumayevad34@gmail.com)

**Kalit so'zlar;** turkum, shox-shabbasi, tup, barg, gul, novda, kurtaklar, tur, bandli, meva, urug', po'stloq, spiral, balandlik, to'q kulrang, kuchala, to'pgul, manazarali daraxt, onalik gullari, urug', changchilar, tuguncha, yong'oq meva.

**Annotatsiya;** Eman qoraqayindoshlar oilasiga mansub manzarali daraxt bo'lib, 600 ga yaqin turi bor. Shox- shabbalari yoyiq, yosh tuplarining po'stlog'i silliq, to'q kulrang, bargalari oddiy, gullari, ayrim jinsli, kuchala to'pgulda joylashadi. Mevasi bir urug'li yong'oq meva. Ildizi o'q ildiz . O'zbekistonda Emanning qizil eman turi ekiladi. Eman yorug'sever, qurg'oqchilikka chidamli daraxt. 400—1000 yilgacha yashaydi. Ba'zi turlarining po'stlog'idan po'kak olinadi. Yong'og'idan oziq-ovqat sanoatida sun'iy qahva tayyorlanadi

**Eman-(Quercus)** — Bu qoraqayindoshlar oilasining asosiy tarkumi bo'lib, 600 ga yaqin turi bor. Barcha turlari yirik daraxt bo'lib, shox-shabbasi yoyiq, ba'zan butalari ham uchraydi. Yosh tuplarining po'stlog'i silliq, to'q kul rangda bo'lib, so'ng bo'yiga yoriladi. Ayrim turlarining po'stlog'ida po'kak qavatlar hosil bo'ladi. Kurtaklari bandsiz, tangachalar bilan qoplangan bo'lib, spiral shaklda joylashadi. Barglari ham oddiy, spiral shaklda joylashadi, ba'zi turlarida qish bo'yi yashil holda saqlanadi, boshqalarida esa tez to'kilib ketadi. Gullari ayrim jinsli, bir uyli daraxt. Barg to'kadigan turlari barg yozish bilan bir vaqtida gullaydi. Otalik gullari osilib turadigan kuchala hosil qiladi. Ular novdaning tub qismida yoki kuzgi kurtaklardan o'sib chiqadigan novdalarda joylashadi. Onalik gullari bandsiz yoki bandli bo'lib, barg qo'ltig'ida bittadan yoki bir nechtadan joylashadi. Guli shamol vositasida changlanadi. Guli changlanadigan vaqtida urug' kurtak hali takomillashmagan bo'lib, mevasi keyinroq tugiladi va har xil muddatda yetiladi. Mevasi bir yilda yetiladigan turlarida gullari changlangandan keyin 2 oydan so'ng urug'lanish ro'y beradi. Mevasi ikkinchi yili yetiladigan turlarida esa 13—14 oydan so'ng sodir bo'ladi. Tugunchadagi 6 ta urug' kurtakning, odatda, bittasi urug'lanadi, xolos. Ayrim vaqtarda 2—3 ta yoki 4 ta urug'kurtak urug'lanishi mumkin. Bunda 3—4 urug' meva yetiladi. Mevasi bir urug'li yong'oq meva bo'lib, birinchi yoki ikkinchi yili yetiladi. Yetilgan meva ajralib yerga to'kiladi. Mevasi (yong'og'i) - 5°—7° C sovuqqa chidaydi. Nam tuproqqa tushsa va harorat normal bo'lsa una boshlaydi. Ildizi o'q ildiz. U keyin shoxlanib ketadi va yerga 10—12 m chuqur o'sib kiradi. Emanning hamma turi ildizida mikoriza hosil bo'ladi,



demak bular ham mikotrof o'simliklardir. To'nkasidan ko'karadi. Ildizdan bachkilamaydi. Uni parxish yo'l bilan hamda yashil qalamchasidan ko'paytirish mumkin. Shimoliy yarim sharning mo'tadil, subtropik va tropik mintaqalarida 450 ta, Shimoliy va Markaziy Amerikada 200 ta dan ortiq turi bor. O'zbekistonda Emanning qizil eman turi ekiladi. Ildizi o'q ildiz, 5 m chuqurlikka kirib boradi. Daraxtining balandligi 20–25 m, shoxshabbasi keng. Barglari teskari tuxumsimon, o'yma, novdalari qizgish qo'ng'ir rangda, tuksiz. To'pguli kuchala yoki boshcha. Aprel oyida gullab (15—60 yoshidan gullay boshlaydi), sentabrda urug'i pishadi. Mevasi yong'oqcha. Eman yorug'sever, qurg'oqchilikka chidamlı daraxt. 400—1000 yilgacha yashaydi. Yog'ochi aviatsiya va kemasozlikda, qurilishda, mebel sanoatida, bochkasozlikda qimmatli xom ashyo hisoblanadi. Po'stlog'idan teri oshlashda foydalaniladi. Shahar ko'chalari va xiyobonlarda manzarali o'simlik sifatida o'stiriladi. Ba'zi turlarining po'stlog'idan po'kak olinadi. Yong'og'idan oziq-ovqat sanoatida sun'iy qahva tayyorlanadi.

#### **Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati;**

- 1.O'. Pratov, L.Shamsuliyeva, E. Sulaymonov, X.Axunov, K. Ibodov, V. mahmudov, Botanika ( morfologiya, anatomiya, sistematika, geobotanika) Toshkeny.
2. A.Q. Qayimov, E.T. Berdiyev "Dendrologiya" Toshkent-2012.
3. Botanika (o'quv qo'llanma). Toshkent 2018.
4. Tursunova Gulbahor Sultanova, Komilova Shoira Rafiqova Botanika asoslari ( o'quv qo'llanma). Toshkent 2009.
5. E.T. Berdiyev, SH.F. Gulamxodjayeva "Manzarali daraxtlarni ko'paytirish" Toshkent 2020.
- 6.O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
- 7.www. ziyouz.com kutubxonasi.

